



XALQ DEPUTATLARI FURQAT TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 11 - aprel

VI-47-57-11-164-K/22

Furqat tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va

“Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”dan mazkur tadbirlarga

mablag’lar ajratish to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli, 2021-yil 22-sentyabrdagi “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5250-sonli, 2022-yil 7-aprel kungi “Tuman va shahar byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish jarayonida fuqarolarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PQ-197-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli va 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish masadida Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil-7 aprel kungi “Tuman va shahar byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish jarayonida fuqarolarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PQ-197-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Furqat tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘arma” mablag‘lari 4 229,0 mln.so‘mni tashkil etganligi, 1-bosqich g‘oliblarini o‘z vaqtida moliyalashtirish

uchun 2022-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi mablag'lari hisobidan tuman "Fuqarolar tashabbusi jamg'arma"si ga 153,0 mln.so'm mablag' o'tkazib berilishi inobatga olinsin hamda jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri S.Axmedovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yuqorida ko'rsatilgan qarorlar va tasdiqlangan nizom talablariga hamda ishchi guruh xulosalariga asosan ENG KO'P ovoz olgan 11 ta:

- 21-sonli umumta'lim maktabini moddiy-texnika bazasini boyitish uchun 212,0 mln.so'm (ID raqami 1410400128);

- "Kichik yangi" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400014);

- "Kaldushon" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400027);

- "Qo'qonboy" MFY ko'chalarini asfaltlash uchun 900,0 mln.so'm (ID raqami 1410400066);

- "Istiqlol" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400021);

- "Yangi" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400024);

- "Tomosha" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400026);

- "Chekko'prik" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 408,0 mln.so'm (ID raqami 1410400025);

- "O'rtaqo'rg'on" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400071);

- "To'rg'ay" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 408,0 mln.so'm (ID raqami 1410400018);

- "Shunqor" MFY infratuzilmasini yaxshilash uchun 409,0 mln.so'm (ID raqami 1410400022) takliflar "g'olib" deb topilsin va ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha "Manziliy ro'yxat" ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda:

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi ta'qiqlanishi belgilab qo'yilsin.

4. Tasdiqlangan manziliy ro'yxat asosida:

- tuman hokimligi Moliya bo'limi (S.Axmedov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- tuman hokimligi hisobxonasi (A.Sayidov) jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

- buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi ishchi guruhiga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (U.Bozorov) tuman Moliya bo'limi (S.Axmedov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Tuman byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

3

Kengash raisi



J.Jumanov



**XALQ DEPUTATLARI
FURQAT TUMAN KENGASHINING
QARORI**

2022 - yil 28 - yanvar

VI-43-11-11-164-K/22

Furqat tuman hokimligi

**2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni
moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budget ma'lumotlarining ochiqiligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-apreldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI/XXVII-142-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-apreldagi "Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI/XXVII-142-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri S.Axmedovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

- 2021-yil "Tashabbusli budjetlashtirish" jarayon natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

- 2021-yilda "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasi mablag'larini shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

- 2021-yilda "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2022-yil fevral oyida o'tkaziladigan "Tashabbusli budjetlashtirish" jarayonining 1-bosqichi uchun ajratilgan mablag'lar miqdori 4 229 022,0 ming so'm miqdorida tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (S.Axmedov), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (Z. Alixadjaeva), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (U.Xamidov) hamda mahalla fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda fevral oyida o'tkaziladigan "Tashabbusli budjetlashtirish" jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borsinlar.

5. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (S.Axmedov), tuman hokimligi Axborot xizmati (U.Bozorov) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budjet" axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Valiev), ijrosini ta'minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Ж.Жуманов